

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING
PEDAGOGIK QOBILIYATINI INTEGRATIV YO'NALISHDA
TAKOMILASHTIRISH**

*Xasanova Gulnoza Ilxom qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarning bilim va malakali mutaxassislarini tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyat taraqqiyotini taminlovchi strategik maqsad sifatida belgilangan. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari o'rganilgan va muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, pedagog, kadrlarni tayyorlash, zamonaviy talab, strategik maqsad, mutaxassis, tiklash, to'ldirish, ta'lim mazmunining yaxlitligi, fanlararo aloqalarni, ta'lim dasturlari.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА
ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В
ИНТЕГРАТИВНОМ НАПРАВЛЕНИИ**

*Хасанова Гулноза Ильхом кызы,
Преподаватель Джизакского государственного педагогического
университета*

Аннотация: в рамках системы высшего образования воспитание всесторонне развитой личности и квалифицированных специалистов определяется как стратегическая цель, обеспечивающая развитие общества. В статье исследуются и обсуждаются педагогические возможности повышения педагогического мастерства преподавателей высших учебных заведений.

Ключевые слова: интеграция, педагог, подготовка кадров, современный спрос, стратегическая цель, специалист, восстановление содержания образования, оснащенность, целостность, междисциплинарность, образовательные программы.

**DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL ABILITIES OF TEACHERS
OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN AN INTEGRATIVE
DIRECTION**

*Khasanova Gulnoza Ilkhom kizi,
Teacher of Jizzakh State Pedagogical University*

Abstract: within the framework of the higher education system, education of well-rounded individuals and qualified specialists is defined as a strategic goal that ensures the development of society. Pedagogical possibilities of improving the pedagogical skills of teachers of higher educational institutions are studied and discussed in the article.

Key words: integration, teacher, personnel training, modern demand, strategic goal, specialist, restoration of educational content, equipment, integrity, interdisciplinarity, educational programs.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim sifatini oshirishda yangi zamonaviy talablarga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim

hisoblanmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish, oliy ta'lim tizimi doirasida barkamol shaxs va malakali mutaxasislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyat taraqqiyotini taminlovchi strategik maqsad sifatida belgilangan. Shu boisdan ham oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, maktabgacha ta'lim yo'nalishi zimmasiga bir qator muhim vazifalarni ijobiy xal etish, zamon talablariga to'liq javob bera oladigan mutaxasislarni tayyorlab berish kabi ma'suliyati yuklanmoqda. Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini shakllantirish muammosining nazariy va amaliy jihatdan o'rganish ushbu tizmida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator muhim vazifalar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. O'qituvchining pedagog sifatida shakllantiradigan va pedagogik mahoratini tavsiflovchi pedagogik qobiliyatlar majmuasini qamrab olishga nisbatan tadqiqot ishlari olimlar tomonidan turli bosqichlarda olib borilgan.

XX asrning 70-80-yillarda o'qituvchining xarakter-xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o'rganildi. Jumladan, rus olimasi N.V.Kuzmina o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o'rni va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. U o'z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni gnostik (bilishga oid), proyektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chuqur psixologik ta'rif beradi. N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatoriga kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o'qituvchining bu hislati o'quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.I.Shcherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat – bu o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo qiladi. A.I.Shcherbakov o'qituvchi shaxsi oltita kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

| | |
|---|--|
| 1 | yuksak saviyadagi bilim va madaniyat; |
| 2 | yo'nalishning aniq ifodalanganligi; |
| 3 | yuksak axloqiy hislarning mavjudligi; |
| 4 | yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik; |
| 5 | qat'iy va silliq xarakter; |
| 6 | pedagogik qobiliyatlar. |

Pedagog olim I.P.Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan:

1) tashkilotchilik – ta'lim oluvchilarni jipslashtirish, ularning faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish, yakunlarini chiqarish;

2) diagnostik – o'quv materialini tanlay olish, o'quv materialini tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli va tizimli bayon eta olish; o'quvchilarning bilishga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag'batlash, o'quv-biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka qobiliyatlilik;

3) pertseptiv – ta'lim oluvchilarning ichki olamiga ta'sir ko'rsatish; ularning emotsional holatini xolis baholash, psixikasidagi o'ziga xosliklarni aniqlay olish ko'nikmasi;

4) kommunikativ – ta'lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga

qaratilgan munosabatni o'rnatish o'riniga o'zgartirish;

5) suggestiv (suggestiya - ishontirish) – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatish;

6) tadqiqotchilikka doir – pedagogik jarayon va vaziyatlarni anglash hamda ob'ektiv baholay olish o'riniga;


7) ilmiy-bilishga doir – tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati;

8) gnostik – ob'ekt, jarayonni va o'z faoliyati natijalarini tadqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korektsiyalay olish qobiliyati.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Ta'lim va tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabr-toqat, matonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehmuxabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib borishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi na zarur paytda so'z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining integratsiyalashni ta'minlovchi omillardir.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtayi nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik. "Integratsiya" lotincha integratio- tiklash, to'ldirish, integerbutun so'zlaridan kelib chiqqan. Integratsiya fanlararo va fanlararo aloqalarni, turli ta'lim dasturlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish orqali ta'lim mazmunining yaxlitligiga erishish jarayoni va natijasidir. Bu so'z mohiyatidan kelib chiqqan holda integratsiyani ikki xil jarayon sifatida anglashimiz mumkin.



Fanlararo aloqadorlik asosida tanlangan muayyan o'quv fanining mazmuni u yoki bu fanga aloqador bo'lgan ba'zi umumiy ifodalardan iborat. Bizning davrimiz uchun fanlar integratsiyasi olamning umumiy holati haqida yanada izchilroq tasavvurga ega bo'lish odatiy hol. Bu muammoni bir fan doirasida hal etish mumkin emas. Shuning uchun ta'lim tizimida o'quv fanlarining birlashtirish va umumiy mazmunini yaxlit modellarda ifodalash jarayoni davom etmoqda.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarni integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash ta'lim tizimi oldiga birqancha muammolarni qo'yimoqda. Mazkur vazifalarni yechish uchun o'quv fanlararo aloqadorlikni taminlashning ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o'quv fanining fanlararo aloqadorlikda mazmunini tanlash ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan so'nggi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv fanlarining bir biri bilan o'zaro bog'langan tizimini shakllantirish lozim. O'quv fanlarining o'zaro bog'lab o'rganish talabalarga olamni bir butunlikda anglashga imkon beradi. Bunday kompetentga ega bo'lgan o'qituvchi

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini integrativ holatda tashkil eta oladi va maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini tizimlarning o'zaro bog'langanligi haqidagi bilimlar bilan boyitadi.

Taxlil va natijalar. Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to'ldirish imkoni oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvafaqqiyatli bajarish imkoni aslo yo'q emas. Shu boisdan ham pedagogika oliy ta'lim muassasalariga o'qituvchilik kasbini sevgan, unga chin ko'ngildan qiziqqan va moyilligi bo'lgan iqtidorli yoshlargina qabul qilinishi lozim.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab etishtirmog'i lozim.

Bilish qobiliyati - fanning tegishli sohalariga oid matematik, fizika, biologiya, adabiyot va xokazolarga doir qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagi emas balki ancha va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni xamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nixoyatda qiziqadi oddiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

Tushuntira olish qobiliyati - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilar mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. O'qituvchi zarur xollarda o'quv materiallarini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga etkaza olishi darkor o'quvchilar ruhiyatini hisobga olish zarur. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolat darajasini hisobga oladi, ularning nima bilishlari va hali nimani bilmasliklarini nimani unitib qo'rganlarini tasavvur etadi.

Kuzatuvchilik qobiliyati – o'quvchining, tarbiyalanuv-chining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsni va uning vaxtinchali ruhiy xolatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan pedagogik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatidagi ko'z ilgamas o'zgarishlarini ham tez farqlab oladi. O'quvchilar bunday o'qituvchilar haqida: Qaramayotganga o'xshaydiyu, hamma narsani ko'rib turadi. O'quvchining hafa bo'lganini yoki dars tayyorlamayotganligini ko'zidan biladi, deydilar.

Nutq qobiliyati – nutq yordamida, shuningdek imo ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo'lsa ham uning nutqi xamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fmkning ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda tushunarli bo'ladi.

Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan , o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishini nazarda tutadi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni o'ziga hos, xis etishini vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatga ulgurish xususiyati hosil bo'ladi.

Obro' orttira olish qobiliyati – o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fani yaxshi bo'lishi, mehribonligi, nazokatligi va xokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o'qituvchi shaxsiy sifat-larining butun bir yig'indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga dadilligi, chidamliligi va xokazolarga, shuningdek o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga o'zining haq ekanligini ishonishga, bu ishonchni o'quvchilarga etkaza olish qobiliyatlarga hma bog'liq.

To'g'ri muomala qila olish qobiliyati - bolalarga yaqinla-sha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati – o'z xarakterlarning oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarini taraqqiy ettrish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari, hajmi, kuchi, ko'ruvchanligi iroda qila olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar. Shun ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarni integrativ tarzda fikrlash imkoniyatlarini vujudga keltirish zarur. Bunday yondashish talabalar tomonidan bilimlarni izchil o'zlashtirishga yordam beradi, ya'ni bir holatdan ikkinchi holatga ko'chirib qo'llash ko'nikmasini tarkib toptiradi. O'qituvchilarga fanlar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini hozir o'rganilayotgan bilimlar bilan birlashtirish fanlararo aloqadorlikni ta'minlashga yordam beradi. Integratsiya ta'limdagi muhim innovatsion hodisalardan biridir. Ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuv rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini oshiruvchi muhim vositadir.

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida . – T.: O'zbekiston, 2017. – 4b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlar to'plami. – T., 2017. – B. 37.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida” gi qarori 2018 yil 5 iyun.

4. Erkaboeva N. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Qo'qon: Qo'qon DPI nashriyoti, 2020. – 143 bet.(12-bet)

5. R.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma.-T ., □Fan va texnologiya□, 2009, 176 bet. 43,35b

6. Mavlonova R.A., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika (darslik). – T.: O'qituvchi, 2001. – 510 b.

7. Davletshin M.G. va boshq. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134 b.

8. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.:O'zbekiston, 1999. – 30 b.

9. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2004. – 336 b.

10. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika - o'quv qo'llanma. – T.: FAN, 2004. – 182 b.

11. G. I. Xasanova, Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni . - Academic research in educational sciences, 2021.

12. G. I. Xasanova, (2021). Bolaga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda tarbiyachining kasbiy kompetentsiyasining ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.